

**KOMISSIV NUTQIY AKTLAR TIZIMIDA VA'DA AKTINING
LINGVOPRAGMATIK TAHLILI****Yaxoyeva Umida Ibrohim qizi**

*Buxoro xalqaro universiteti o'qituvchisi,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
Umidayaxyoyeva02@gmail.com
+998978604810*

**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 30.10.2025**Revised: 31.10.2025**Accepted: 1.11.2025***KALIT SO'ZLAR:**

*nutqiy akt, komissiv
akt, va'da akti,
pragmalingvistika,
qasamyod, kafolat,
lingvopragmatika.*

Maqolada komissiv nutqiy aktlarning nutq muloqotidagi o'rni va ularning asosiy ko'rinishlaridan biri va'da akti lingvopragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda J. Ostin va J. Syorlning nutqiy akt nazariyasi asosida va'da aktining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, va'da aktining uch tipi odatiy va'dalar, qasamyod va'dalari hamda kafolat va'dalari tahlil qilinib, ularning mazmuniy-funksional farqlari aniqlangan. A.Qahhor asarlarida va'da aktining badiiy ifodasi misollar orqali tahlil etiladi. Maqola komissiv aktlarning milliy madaniyatdagi ifodalanish shakllarini ham ochib beradi.

Kirish

Tilning asosiy ijtimoiy funksiyalaridan biri insonlar o'rtasida o'zaro aloqa, tushunish va ta'sir o'rnatish vositasi sifatida xizmat qilishidir. Til birliklari inson tafakkurining ifodasi bo'lish bilan birga, kommunikativ jarayonlarda ma'lum maqsadni amalga oshirishga qaratilgan nutqiy faoliyatning ham vositasidir. Shu jihatdan, tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lgan pragmalingvistika til birliklarining ma'nosini ularning nutqiy vaziyatdagi maqsadga yo'naltirilganligi asosida o'rganadi. Nutqiy aktlar nazariyasining asoschilari J. Ostin (Austin, 1962) va J. Syorl (Searle, 1969) nutqni faqatgina ma'no ifodalovchi vosita sifatida emas, balki harakat bajaruvchi hodisa sifatida talqin qilganlar. Ostin "How to Do Things with Words" asarida har qanday gap orqali inson biror nutqiy

harakat (speech act) bajarishini ta'kidlaydi. Nutqiy aktlarning turlari ichida komissiv aktlar alohida o'rin tutadi. Ular orqali so'zlovchi (adresant) o'z zimmasiga ma'lum majburiyat oladi yoki kelajakdagi harakatni bajarish niyatini bildiradi. Komissiv aktlarning asosiy turi bo'lgan va'da akti insonning so'z orqali o'zini mas'uliyatli sub'ekt sifatida namoyon etishidir. Va'da akti nafaqat kommunikativ jarayonning mazmuniy tarkibini, balki axloqiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni ham ifodalaydi. Shu sababli, va'da akti tilning lingvopragmatik imkoniyatlarini chuqur namoyon etuvchi nutqiy birlik sifatida tadqiq etiladi. Mazkur maqolada komissiv aktlar tizimida va'da aktining mohiyati, turlari, ularning semantik-pragmatik xususiyatlari hamda A.Qahhor asarlarida ifodalanish shakllari tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Tilshunoslikda nutqiy akt nazariyasi XX asrning ikkinchi yarmida J. Ostin va J. Syorl tadqiqotlari natijasida shakllangan bo'lib, u tilda ifodalangan gapni faqat ma'no ifodasi emas, balki amaliy harakat sifatida talqin qiladi. Ostinning fikricha, har bir so'zlovchi o'z nutqi orqali ma'lum bir harakatni amalga oshiradi, bu esa kommunikativ jarayonning illokutiv mohiyatini tashkil etadi⁵². Komissiv aktlar shaxsning kelajakdagi harakatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishini bildiruvchi nutqiy harakatlar bo'lib, ular orqali so'zlovchi o'z niyatini, va'dasini yoki majburiyatini bildiradi. Komissiv aktlarning mohiyati shundaki, ular vaqtga bog'liq illokutiv kuchga ega ya'ni, mazkur nutqiy aktda bildiruvchi harakat hozirgi emas, kelajakda bajarilishi kutilayotgan amalni anglatadi. Masalan, "Men ertaga sizga yordam beraman" kabi gap orqali so'zlovchi tinglovchiga nisbatan o'z majburiyatini oladi. Ko'plab tilshunoslar (Searle, Leech, Mey, Meyr, Ochs, Levinson) komissiv akti ijtimoiy ishonchning muhim vositasi deb hisoblaydi. Chunki u orqali inson o'zining so'ziga sadoqatini, ijtimoiy burchini va axloqiy qadriyatlarini bildiradi⁵³.

O'zbek tilida ham komissiv aktlar ko'p uchraydi. Ular nafaqat kundalik muloqotda, balki adabiyotda, xalq maqollarida, diniy va rasmiy nutq shakllarida ham keng qo'llanadi. "Va'da", "qasamyod", "kafolat", "ahd", "paymon" kabi tushunchalar o'zbek madaniyatida so'zga sodiqlik va vafodorlik ramzi sifatida qadrlanadi. Komissiv aktlarning kommunikativ xususiyatlari shundaki, ular ikki tomon o'rtasida o'zaro ishonchni shakllantiradi. Adresant tomonidan aytilgan va'da bu nafaqat til birligi, balki ijtimoiy kontrakt, ya'ni axloqiy

⁵² Ostin J. "How to Do Things With Words"/ "Слово как действие". – М.: Прогресс, 1986. – 422 с.

⁵³ Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: University Press, 1983. – 420 с.

kelishuv sifatida qabul qilinadi. Ko‘rinadiki, komissiv nutqiy aktlar insonning nutqdagi mas’uliyat hissi, irodaviy qat’iyati va madaniy qadriyatlari bilan bevosita bog‘liq. Ular pragmatik tahlilda illokutiv kuch, kommunikativ niyat va ijtimoiy kontekst orqali aniqlanadi. Va‘da akti komissiv nutqiy aktlarning eng muhim va keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biridir. Unda so‘zlovchi o‘z zimmasiga ma’lum bir harakatni bajarish majburiyatini oladi. Shu jihatdan, va‘da berish nafaqat til hodisasi, balki ijtimoiy-psixologik va madaniy hodisa sifatida ham tahlil etiladi ⁵⁴.

Va‘da akti o‘z mohiyatiga ko‘ra illokutiv xususiyatga ega bo‘lib, unda so‘zlovchining niyati va tinglovchining ishonchi o‘zaro uzviy bog‘langan. Bu akt quyidagi kommunikativ komponentlarni o‘z ichiga oladi. J. Searlning ta’kidlashicha, va‘da aktining amalga oshishi uchun uchta asosiy shart bajarilishi zarur:

- a) So‘zlovchi kelajakda ma’lum bir ishni bajarishga haqiqiy qobiliyatga ega bo‘lishi;
- b) So‘zlovchi bu ishni bajarishga chin niyat bildirishi;
- c) Tinglovchi bu va‘daning rostligiga ishonishi⁵⁵.

Va‘da akti lingvopragmatik jihatdan mazmunan “kelajakdagi ijobiy harakat”ni ifodalovchi predikatlar orqali ifodalanadi. Masalan:

- “Men albatta seni kutaman.”
- “Ertaga bu ishni bajaraman.”
- “Men bu sirni hech kimga aytmayman.”

Bu gaplarda “kutaman”, “bajaraman”, “aytmayman” kabi fe‘llar va‘da aktining illokutiv kuchini belgilaydi. Ular orqali so‘zlovchi o‘z niyatini ifoda etadi va tinglovchida muayyan ishonch uyg‘otadi. O‘zbek madaniyatida va‘da aktining axloqiy mohiyati alohida ahamiyatga ega. “So‘z – erkakning kafolati”, “Va‘daga vafollik – insonning fazilati”, “So‘z – paymon”, “Va‘daga xiyonat – uyat” kabi maqollar va‘da aktining ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu maqollar orqali va‘da insoniy ishonch, sadoqat, vijdon va axloqiylik mezon.

Biz va‘da aktini uchta turga ajratishni lozim topdik:

1. Odatiy va‘dalar
2. Qasamyod va‘dalari
3. Kafolat va‘dasi

Odatiy va‘dalar — bu bir ishni bajarish yoki bajarmaslikka birovni ishontirish, lafz qilish, birov bilan ahdlashishdir. Masalan: Va‘da – oltindan qimmat. Va‘da – vafosi bilan go‘zal. Odatiy va‘dalar– kelajakda sodir etiladigan kundalik harakatlarimizga bog‘liq bo‘lib, uni

⁵⁴ Mey J.L. Pragmatics. An Introduction. – USA, UK: Blackwell Publishers, 2001.–500 p.

⁵⁵ Searle J. R. Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. – Cambridge: University Press, 1979. – 187 c.

bajarish, va'dani ustidan chiqish, o'z ahd-u paymonida turish insonning go'zal fazilati sifatida e'tirof etiladi. Bunda va'dani bajarmaganda ham hech qanday chora ko'rilmaydi. Sohibqiron Amir Temur vafodorlikni g'oyat qadrlagan: "Men har kimgaki va'da bersam, unga vafo qildim, har bir va'daga xilof ish qilmadim. Men doimo va'dalarimni aniq bajarsam, shundagina odil bo'lishimni va kimsaga jabr yetkazmasligimni angladim. 2. Qasamyod va'dalari – bu yuridik va ijtimoiy kontekstda shaxslarning o'z majburiyatlarini bajarishga va'da berish yoki turli yuridik harakatlarni amalga oshirish uchun ishlatiladigan tilda ifodalangan mustahkam yuridik ifoda sanaladi. Qasamyodning kommunikativ ahamiyati uning yuridik va axloqiy roli bilan bog'liq. Qasamyod nutqiy aktida shaxs o'zining ijtimoiy va yuridik majburiyatlarini tasdiqlovchi va'da yoki majburiyatlarni oladi. Bu nutqiy harakatda, shaxs kelajakdagi harakatlari, maqsadga erishish uchun zarur shartlar va o'zaro majburiyatlarni bildiradi. Qasamyodning odatiy va'dadan farqi rasmiy shaklda bo'lishi hamda yuridik va axloqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilganligidadir. Qasamyod, shuningdek, qatnashuvchi tomonlar o'rtasidagi axloqiy va yuridik muvofiqlikni ta'minlab, kelajakdagi faoliyatga oid qarorlarni qabul qilishga undaydi.

Qasamyod rasmiy huquqiy tizimda mustahkamlanib, majburiyatlar va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish funksiyasini bajaradi. Ko'rinadiki, qasamyod nutqiy harakati shaxsning kelajakdagi maqsadlar uchun qat'iy va mas'uliyatli yondoshuvini ko'rsatadi, hamda tomonlar o'rtasidagi ishonchni oshiradi. Qasamyodning va'dadan farqi:

- muqaddaslik;
- majburiylik;
- ishonch va sadoqatni ifodalash;
- rasmiy marosimlarda amalga oshiriladi;

Shuningdek, tadqiqotda qasamyod akti qamrovi jihatdan quyidagicha tasniflandi:

1. Shaxsiy munosabatlarda qasam (Nikoh qasamyodi)
2. Kasbiy qasam (Davlat rahbarlari qasamyodi, harbiylar qasamyodi, shifokorlar qasamyodi)
3. Huquqiy tizimda qasam (Guvohlarning suddagi qasamyodi)

Xulosa shuki, qasamyod – bu shaxs tomonidan ma'lum bir burchni bajarish yoki muayyan mas'uliyatni bajarish uchun berilgan rasmiy va'da.

2. Kafolat va'dalari – biror narsaga yoki biror kimsa haqida boshqalarni ishontirib va'da berish; mas'uliyatni, javobgarlikni o'z ustiga olish, kafolat berishdir. Kafolat va'dalarining o'ziga xosligi:

- Majburiylik;
- Ishonch va sadoqatni ifodalash;
- Jazo va oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

“Va’da – oltindan qimmat” – bu maqol va’daning qadrini va uning ahamiyatini ta’kidlaydi. “Va’da – quruq, bajarilsa – ulug’” – bu maqol va’daning bajarilishi uning haqiqiy qiymatini oshiradi, degan ma’noni anglatadi. “Va’daga vafo – mardning ishi, va’dasiz – subutsiz kishi” – bu maqol mard inson va’dasiga sodiq qolishini, aks holda ishonchsiz bo’lishini bildiradi. Tadqiqot davomida A.Qahhor asarlarida va’da akti bilan bog’liq o’rinlar bir qanchaligini kuzatdik:

Qobil bobo yor-do’stlari bilan kengashdi – pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo’ladi? Ma’lum bo’ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan. Uchta tovuq, garchi biri kurk bo’lsa ham, Qobil boboning o’zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo’ni-qo’shni, yor-birodarlar o’zaro yig’ib berdi. Ammo bu tortiq bilan tilmochdan nari o’tib bo’lmadi. Tilmoch tortiqni oldi va beto’xtov pristavga yaxshilab tushuntirishni va’da qildi⁵⁶.

Kabinetga ikki kishi kirdi. Kamolxonov o’rnidan turdi. – Endi men ishni boshlay beraymi? – Va’da berib ustidan chiqmasam to’g’ri kelmaydi-da. – Va’da bersangiz bas, qilmasangiz ham mayli⁵⁷.

Munozara va muzokaralardan keyin zvenoga boshliq qilib yetmish bir yashar To’xtabuv Sarimsoqova saylandi. Majlis yopildi. Rais ketdi. Shu kuni kechasi, yotar mahalida, To’xtabuvini vahima bosdi: bular-ku hammasi va’da berdi, sayladi, ertaga biri “Belim og’riydi”, biri “O’glimdan xat kelmayapti, yuragimga qil sig’maydi” deb uyiga kirib yotib olsa, nima bo’ladi? ⁵⁸

Rais o’sha kuni tumanda birinchi bo’lib, yigirma besh kilo pilla topshirdi va kampirlarga bergan va’dasiga muvofiq Toshkentga “sim qoqdi”⁵⁹.

A.Qahhor ijodi o’zbek adabiyotida psixologik realizm va nutqiy individuallik jihatidan alohida o’rin tutadi. Uning asarlarida personajlar nutqi faqat syujetni rivojlantirish vositasi emas, balki ichki dunyo va ijtimoiy ong ifodasi sifatida namoyon bo’ladi. Shu nuqtai nazardan, A.Qahhor qahramonlarining nutqida komissiv aktlar, xususan va’da aktlari,

⁵⁶ Qahhor A. Asarlar. 5 jildlik. 1-jild. (Ўғри) – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 330 б.

⁵⁷ Qahhor A. Asarlar. 1-jild. (Икки ёрти бир бутун) – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 330 б.

⁵⁸ Qahhor A. Kampirlar sim qoqdi. – Т.: Ziyo nashr, 2019. –218 б.

⁵⁹ Shu manba.

psixologik ziddiyat va ijtimoiy mas'uliyatni ifodalovchi vosita sifatida muhim rol o'ynaydi [8].

A.Qahhor asarlarida va'da akti ko'pincha ikki qatlamda ishlatiladi:

1. Axloqiy majburiyat sifatida — qahramonning vijdon, or-nomus, sadoqat kabi insoniy fazilatlari bilan bog'liq holatlarda;
2. Ijtimoiy-ironik vosita sifatida — va'da bajarilmaganda, muallif tanqidiy-kinoyaviy maqsadda uni til unsuri sifatida ishlatadi.

Masalan, “Sinchalak” hikoyasida bosh qahramonning “Men o'zim borib ularni ko'ndiramanki” degan so'zi tashqi ko'rinishda oddiy va'da bo'lsa-da, aslida unda o'zini oqlashga urinish, o'z obro'sini saqlab qolish illokutiv maqsadi mavjud. Bu yerda va'da akti real bajariladigan majburiyat emas, balki ijtimoiy niqob sifatida

A.Qahhor ijodida va'da aktining lingvopragmatik mohiyatini quyidagi belgilar orqali kuzatish mumkin:

- So'zlovchi ko'pincha o'zini ijtimoiy jihatdan oqlash yoki ishonchni saqlab qolish niyatida va'da beradi;
- Va'da aktlari emosional ohang, ironik teskari ma'no, yoki kinoya bilan mustahkamlanadi;
- Muallif va'da beruvchi shaxsni axloqiy mezonlar bilan sinovdan o'tkazadi;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ostin J. “How to Do Things With Words”/ “Слово как действие”. – М.: Прогресс, 1986. – 422 с.
2. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: University Press, 1983. – 420 с.
3. Mey J.L. Pragmatics. An Introduction. – USA, UK: Blackwell Publishers, 2001.–500 p.
4. Searle J. R. Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. – Cambridge: University Press, 1979. – 187 с.
5. Қаҳҳор А. Асарлар. 5 жилдлик. 1-жилд.(Ўғри) – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 330 б.
6. Қаҳҳор А. Асарлар. 1-жилд. (Икки ёрти бир бутун) – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 330 б.
7. Qahhor A. Kampirlar sim qoqdi. – Т.: Ziyonashr, 2019. –218 b.